



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

Maxsus son.

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor SAIDOV
Dilshod KENJAYEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Yorqinjon ODILOV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
To'liqin SAYDALIYEV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Qo'choqbo YO'LDOSHEV
Tajixon SABITOVA
Salima JUMAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliyana MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,
(71) 233-03-67

e-mail: til_adabiyoti@mail.uz
web-sayt: www.tilvaadabiyoti.uz

Jurnalidan ko'chirilgan maqolalar "Til va adabiyot" ta'limi dan olinadi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat maqomi nazorati mavjudligi kelmaydigan fikr-mulohazalari hisoblanishi mumkin.

Tahririyatga kelgan og'ayimlar taqdir qilmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi.

Biomassazh. 2022.25.06. da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84/8. Sharti bosma tabaqi 8.0. shkalasiga garmatirasi. 10, 11 kepl. »ECO TEXTILE PRODUCTIONS» MCHJ bosma-xonalarida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Bayramtina ... Adali 200 nusxa. Bahosi kelishilgan nashrda.

1991-yildan chiqqa boshlagan

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

ЯЗЫК И ЛИТЕРАТУРЫ LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

MUNDARIJA

G'afurjon Muxamedov. Toshkent viloyat chirchiq davlat pedagogika instituti - 5 yoshda	2
DOLZARB MASALA	
Rayxon Rasulova. Og'zaki va yozma nutq - komilik belgisi	
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR	
Feruza Murodova. Maktab adabiyot darslarida hikoya janri o'qitish texnologiyasi	7
Sarvinov Berdiyeva. O'quvchilarda matn bilan ishlash va tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik-psixologik omillari	8
Ruxsora Murodova. ona tili ta'limida nostonad testlardan foydalanish usullari	11
Tojixon Sabitova. Maqolalar badiyatiga doir	12
Sirdaryoxon O'tanova. Adabiy qahramonlar ruhiyati va tasvir musharakligi	14
TAHLIL	
Mohizhar No'monova. Hamid Olimjon lirikasida epitetning semantik-stilistik xususiyatlari	16
Gulmira Komilova. Tilshunoslikda lingvokulturologiya	18
Nilufar Aqulova. O'tkir Hoshimov ijodida obraz yaratish mahorati	20
Umid Shermatova. Taqqaslashirilgan adabiyot ta'limida binar metodik usullar	22
O'tkir Islomov, Gulzoda Bekmuratova. Madaniy nutq - behavo ma'naviy boylik	22
Adiba Davlatova. So'zning asl ma'nosi - shoirning asl dardi	24
Nodira Xoligova, Humoyun Umaraliyev. Komil inson masalasi - jamiyat masalasi	28
Iroda Xoligova. Hamza Hakimzoda niyozining dramalarida monologik nutqning o'rni	30
Nizomiddin Bozorov, Ulug'ov Chorfiyeva. Dramatik asarlarda makon, zamon va badiiy tilning komparativ qirralari	32
Bahorov Eshmanova. Ingliz va o'zbek maqollarning kognitiv-qiyosiy tahlili	34
Ziyoda Usmonova. Ta'lim tizimiga oid kutuzatish, tahlillar va takliflar	36
Gulshodaxon Tojiyoyeva. Abdulla Qodiriy va zamondoshlari ijodiga ayollar obrazining musharakat jihatlari	38
Emina Achilova. O'tkir Hoshimovning "urushning so'ngi qurboni" hikoyasida psixologik tasvir	40
Musajjan Tadjibayev. Germaniyatda psixologik talqin muammolari	42
TADQIQOT	
Hoshimjon Quchqorov. Tarjimon, tarjima va matn	44
Nafisa Rahmanova. Nizomiy va Navoiyning ota-o'g'il munosabatlari haqidagi qarashlari	46
Laylo Xasanova. Navoiy lirikasida obrazni ifoda etishda ritm va mazmun uyg'unligi	49
Arofotoy Muynidina. O'zbek milliy uyg'unlash adabiyoti vakillari ijodida muvashshah san'ati	51
Mohgul Mavlonova. "Farhod va Shirin" dostonida shopur obrazi talqini	53
Nizomiddin Bozorov, Mohira Hayitova. Samimiyatning teran badiiy ifodasi	55
Ra'no Xayrullayeva. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish, nutqini o'stirish yo'llari va vazifalari	58
Nafisa Muratova. Maktabda tarixiy so'zlar mavzusini o'qitishning o'ziga xos usullari	60
Abdushukur Shofqorov. "O'zbek tilining to'g'ri lug'ati" dagi dialektal so'zlar	63
Rahmatilla Norbekov. Mung'lik qalbar kuchlisi	65
KICHIK TADQIQOT	
Qodirjon Mo'ydinov. Sud nutqi lektsiklasidagi o'zlashtirma so'zlar	67
Shahnoza Azimjonova. Akademik Naim Karimovning ijodkor portretini tarixiy jarayon zaminida o'rganish mahorati	69
Xosiyat Abdugahhorova. Mustaqil so'z turkumlarida antisemik munosabatlarning ifodalaniishi	70
Dildora Yorbulovala. Hamza hakimizda niyozining ashularida xotin-qizlar mavzusi	72
Aziza Avezova. Alisher Navoiy "turkiylar choseri" mi?	73
Nodira Xoligova. Millat va jamiyatning badiiy in'ikosi	76
Hikmat Hikmatov. Adabiyot darsida yangi - xamsa" metodidan foydalanish usullari	78
Xumoyun Umaraliyev. Hamza Hakimzoda Niyozining she'riyatida er va bilim talqini	80

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

jurnali

ISSN 1691-2689

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashridir.

vazn yordamida o'zgargan, o'zgacha kayfiyat yaratilgan.

G'azallarining qolgan qismlari an'anaviy ramali musammani mahzuf vaznida bitilgan. Bu vaznning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, bundagi ohang nisbatan sokin va dardchil. Mazmunni ifoda etishda ushbu omil yetakchi vositalardan biri sifatida ahamiyatga egadir. Ushbu bayt misolida yuqorida keltirilgan baytlar bilan mazmunni jihatdan farqlanishi va unda vaznning ahamiyati alohida ekanligi ko'zga tashlanadi.

Ko'yi/da/ it/llar/ ulzush/ti/llar/Na/voiy/ /xas/ta/ni/

Kim/, e/mas /zo/llir/ki/, jis/mi/ qay/da/, bo/shi/ qay/da/dur/.

Mazmuni: Ko'chasida Navoiy xastani itlar uzishti-lar(tishladilar), boshi qayda, jismi qayda zohir emas.

Mazmunni qaraganda, bunda o'ynoqlik vazndan foydalanib bo'lmagiligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Mazmunni shu tarzda ifoda etish muayyan ritmni hosil qilishda ishtirok etadi.

Mumtoz she'riyatda radif, asosan, qofiya ilmi tarkibida o'rganilgan. She'rshunoslikka doir manbalarda keltirilishicha, radif fors(ajam) she'riyatiga xos bo'lib, arablarda qo'llanilmagan. "O'rta asrlik she'rshunoslar radifning she'riy mazmunini ifodalashdagi ahamiyatini yaxshi anglaganlar, ularning ta'kidlashlaricha, radif bayt bilan shu darajada bog'langan bo'lishi kerak ediki, uning bayt tarkibidan olib tashlanishi she'r mazmuniga putur yetkazardi."

Alisher Navoiyning "Favoyidul kibar" devonida 177 o'rindan joy olgan g'azali "qilur itlar" radifi bilan keltiriladi. G'azal 7 baytdan iborat. **Vazni:** mujtassi musammani maxbuni maqtu'i musabbag'. **Taqte'si:** v-v-| vv-| v-v-| -|. Vaznning o'ynoqligi va tez o'qishga moyilligi Shoir kayfiyatini ifoda etishga xizmat qiladi.

Ijtimoiy ruhda yaratilgan g'azal bo'lib, unda lirik qahramon zamonning totavon, nokas kishilaridan yozg'ira-

di. Ularning qilayotgan "amallari" shoirning qalbini larzaga soladi. Shu kayfiyat ritmning muhim vositalaridan bo'lgan vaznda ham, radifda ham o'z aksini topadi. Bu g'azal boshdan-oxir kinoya asosiga qurilgan.

Xulosa qilib aytganda, it obrazining mazmunini yanada teranroq anglashda va ifoda etilgan kayfiyatni tushinishda ritm hosil qiluvchi vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Aruz vaznidagi ramal, hazaj singari vaznlar ritmni nisbatan sokin, g'amli va og'ir kayfiyatni ifoda etishga xizmat qilgan. Bunda, asosan, oshiqning hijron azobi itlar(nafs)ning qarshilik qilishi yohud it o'mida bo'la olmaganidan shikoyat tarzida fikrlar keltiriladi.

Mujtass, muzore' kabi o'ynoqlik vaznlar oshiqda nisbatan yor vaslidan umidvorlik kayfiyatida yozilgan g'azallarda qo'llanilgan. Bu shuni ko'rsatadiki, it obraziga mazmun yuklashda nafaqat badiiy tasvir vositalar, balki ritmik xususiyatlar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shu kabi ritmik vositalardan yana biri radifdir. Uning muhim xususiyatlardan biri mazmunning mag'izini ifoda etishda qo'l kelishidir. Radifda shoir o'zi ifoda etmoqchi bo'lgan fikrning kalit so'zini berishga harakat qiladi. Natijada, fikr ta'sirchan va salmoqdor bo'lishiga erishadi.

Demak, ritmik vositalar nafaqat asarning shakli jihatdan ko'rkamligini balki, ma'naviy tomondan ham salmoqdorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi vositalardir.

It obrazining mazmun-mohiyatini yoritishda hamda o'quvchiga baytni ta'sirchan yetkazishda muhim ahamiyatga egadir.

Ko'rinadiki, badiiy obrazni mohiyatini ochishda badiiy san'atlar va uni obraz bilan munosabatini aniqlash zarur hodisalardan sanaladi.

It obrazi bilan bog'liq holatda qo'llanilgan tashbeh san'ati orqali obrazga muayyan ma'noda badiiy-estetik yuk ortilgan. Natijada, mazmun teranlashib, o'quvchining ruhiy lazzat va zavq olishiga xizmat qilish asos bo'lgan.

Arofatey MUYDINOVA,

Chirchiq davlat pedagogika instituti,

O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

O'ZBEK MILLIY UYG'ONISH ADABIYOTI VAKILLARI IJODIDA MUVASHSHAH SAN'ATI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek milliy uyg'onish adabiyoti vakillari ijodidagi muvashshah-g'azallar haqida

Annotation. the article talks about the muvashshah-Gazals in the work of representatives of the Uzbek nation-

Аннотация. В статье рассказывается о мувашшах-газалах в творчестве представителей узбекской

so'z boradi. Muvashshah o'zbek mumtoz she'riyatida keng tarqalgan ma'naviy san'atlardir. Muvashshahlar shoir-
lar adabiy-estetik olamini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Ularni ilmiy asosda o'rganish adabiyot tarixining qorong'i jihatlarini yoritishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: she'r, shoir, bayt, misra, muvashshah, g'azal, she'riy san'at, ma'naviy san'at.

al awakening literature. Muvashshah is one of the spiritual arts common in Uzbek classical poetry. Muvashshahs are important in studying the literary-aesthetic world of poets. Their study on a scientific basis serves to a certain extent in highlighting the dark aspects of the history of literature. **Keywords:** poetry, poet, both, misra, muvashshah, gazal, poetic art, spiritual art.

литературы национального пробуждения. Мувашшах – одно из духовных искусств, распространенных в узбекской классической поэзии. Мувашшахи играют важную роль в изучении литературно-эстетического мира поэтов. Их изучение на научной основе в определенной степени помогает выявить темные аспекты истории литературы.

Ключевые слова: поэзия, поэт, байт, мисра, мувашшах, газаль, поэтическое искусство, духовное искусство.

O'zbek milliy uyg'onish davri adabiyotida muvashshah-g'azallar alohida o'rin egallaydi. Feruz, Kamiy, Miskin, Haziniy, Muqimiy, Muhiy, Furqat kabi ulug' shoirlar muvashshahchilikda shuhrat qozonishgan. Maqsud Shayxzoda, Aziz Qayumov, Sharif Yusupov, Qo'ldosh Pardayev singari olimlarning bu mavzuga oid tadqiqotlari muvashshahning o'ziga xos xususiyatlarini yoritgan, unga doir munozaralarga oydinlik kiritgan jihatidan ahamiyatlidir.

Muvashshah arabcha "bezamoq", "ziynatlamoq" ma'nolarini anglatadi. Muvashshah-she'rning har bir misra, bayt yoxud bandining boshlanish harflaridan biror kishining ismi kelib chiqadi. Ba'zan ism misralar tarkibidagi so'zlar orasiga yashiringan bo'ladi. Bunday holda muvashshah muammo usulida yechiladi.

Muvashshahda shoir kishi ismining kelib chiqishiga she'rning oxirgi bayti yoki bandida ishora qiladi. Lekin ochiq ishoralar uchramaydigan muvashshahlar ham mavjud. Ochiq ishoralar berilgan Muqimiy ijodiga mansub muvashshah-g'azallarining ayrimlarini ko'zdan kechirak:

"Jamoixon" ismi yashiringan muvashshah-g'azalning maqta'si:

*Nogohon olsang Muqimiy, avvali har baytidin,
Harflar ravshan bo'lar, albatta, ismin gavhari [2,20].*

"Nizomxon"ga bag'ishlangan muvashshah-g'azalning maqta'si:

*Nogohon har baytidin bir harfin olib Muqim,
O'qi, noming chiqmas ersa nomusulmoning bo'lay[2,19].*

"Tojixon" nomiga bitilgan muvashshah-g'azalning maqta'si:

*Nomig'a aylamu muvashshah, muhabbatdin Muqim,
Bo'lmas odamg'a agarchandi parilar oshno[2,80].*

Muvashshahlar bilan tanishar ekanmiz, ismlariga muvashshah bitilgan shaxslarning kimligi, ularning shoiriga qanday aloqasi borligi va she'r nima munosabat bilan yozilganligi qiziqish uyg'otishi, tabiiy. Shunday

ekan, muvashshahlar ijodi o'rganilayotgan shoirning adabiy davrasi, yaqin do'stlari kim bo'lganini o'rganishda asosli manba bo'lishi mumkin[1,174].

Qo'qon adabiy muhitining zabardast vakillaridan Muqimiy ijodining katta qismini muvashshah-g'azallar tashkil etadi. Jumladan, shoir ijodini o'rganan adabiyotshunos olim Q.Pardayev Muqimiy ijodiy merosida 75 ta muvashshah-g'azal mavjudligini yozadi. "Shoirning Muhsinxon nomiga muvashshah bitilgan 7 baytli:

Mavashsho, hech kim sango mendek g'riflor o'lmasun,

Kecha-kunduz sog'inib mushtoqi diydor o'lmasun, - matla'li g'azali Alisher Navoiyning "Kimsa mendek dahr aro besabr-u orom o'lmasun" misrasi bilan boshlanuvchi g'azaliga nazira qilingan[1,172].

Shoirning Rashidxon, Asrorxon, Yusufxon, Qo'zixon, Usmonjon, Muhammadjon, Komilxon, Tillaxon, Mullajon, Nazixon, Namozxon, Solihjon, Jabborxon, Hoshimjon, Norsaxon, Adolxon, Siddiqjon, Mansurxon, Abdullaxon, Nizomxon, Sultonxon, Qurbonxon, Qosimjon, Akbarxon, Toshpo'latxon kabi yaqinlari nomiga bitilgan muvashshah-g'azallari shunchaki bitilmay, ko'pincha biror voqea sabab yozilganini e'tiborga oladigan bo'lsak, har bir muvashshah o'ziga xos yozilish tarixiga ega ekanligi ayon bo'ladi. Xususan, olim Muqimiyning "Topti husning ko'zgusi xatting g'uboridin safo" matla'li muvashshah - g'azali Tojixon ismiga bitilganini aniqlaydi. Tojixon kim, uning shoiriga qanday aloqasi bo'lgan?

Shoirning jiyani Ro'zimuhammad Do'smatovga yozgan maktubida quyidagilarni o'qiyimiz: "... Ba da janobi hurmatli boylaringizni xonadonlarini haqlarga faqirdin xolis duoyi xayr aytlingiz. Mullo Azimjon va mullo Tojixon mazkurilarni ko'rsangiz salom aytling" maktubda tilga olingan Mullo Azimjon va mullo Tojixon o'sha paytda Moskvaga qatnab savdogarilik qilgan qo'qonlik boylardir. Shoir jiyaniga yozgan maktublarini shular orqali Moskvaga jo'natib turgan[1,173].

Muvashshahlar, asosan, ishqiy mavzuga bag'ishlanadi. Garchi ularida ma'shuqaning ta'rif-u tavsifi, oshiqning zabun holi kabi motivlar yetakchilik qilsa ham, aksar hollarda muvashshahlarda ayollar ismi emas, erkaklar nomi yashiringan bo'ladi. Shuning uchun ham "... muvashshah kimning ismiga bog'langan bo'lsa, o'sha g'azalda ta'rif etilgan obraz ham aynan mazkur kishin-

ing o'zidir deb o'ylash xatodir, – deb yozadi shoir va olim Maqsd Shayxzoda.

Adib o'zining Furqat muvashshahlari munosabati bilan yozgan maqolasi, – „...muvashshahdagi ism bu g'azalning kimga bag'ishlanganiga dalolat qiladi, xolos. Asarda tasvirlangan yor esa bus-butun boshqa bir kishi bo'lishi mumkin. Masalan, Furqatning „Maqsudjon“ ismiga bag'ishlangan g'azalida ... sevgili yor obrazida tasvirlangan kishi „Maqsudjon“ emas, balki go'zal bir ayoldir“ [6,92].

Furqat muvashshahlari haqida aytilgan bu mulohazalar boshqa ijodkorlar yaratgan muvashshahlarga ham taalluqli. Muqimiyning Jamolxon nomiga bag'ishlangan muvashshah-g'azalidan olingan quyidagi satrlar buni tasdiqlaydi:

Jum'la Ho'qand mavzun qadrlarini sarvari,
Dilrabolar dilbari, gulchehralar sardafar.
Mahv o'lub mardum xironimi ko'rub bozor aro,
Deydilar ba'zi „malak“, ba'zi „basha“, ba'zi „pari“
[2,20].

Oydek ravshanki, g'azalda ta'rif-tavsif qilingan dilrabolar dilbari, gulchehralar sardafar bo'lgan, ko'rganlar „malak“mikan, „basha“mikan, yo „pari“mikan, deb mahliyo bo'lgan go'zal, albatta, Jamolxon ismli kishi emas, balki butunlay boshqa bir mahbuba, yordir.

„Lekin Kamiy muvashshahlari misolida bu qonuniyatga zid holatni ham ko'rish mumkin, – deb yozadi adabiyotshunos O. To'laboyev toshkentlik shoir Kamiy ijodiga bag'ishlangan tadqiqotida [4,87]. – Mana shunday muvashshahlardan biri „Abdulazizxon“ nomiga yozilgan. Xo'sh, Abdulazizxon kim? Adabiyotshunosligimizda u haqdagi dastlabki ma'lumotni professor G. Karimovning „Muqimiy“ monografiyasidan olamiz: „Abdulazizxon Eski jo'va tomondan, O'zgard mahallalik. Abdulazizxon erkin fikrli, ma'rifatparvar va san'at-adabiyotga havaskor shaxslardan edi. U shoir, olim va san'atkorlarga moddiy yordamda bo'lgan. Uning uy ilg'or intilishlarga ega

bo'lgan Toshkent shoiralarining adabiy guruh markaziga aylangan. Muqimiyning u kishi haqida „Xon akam“ sarlavhali she'r yozgani ma'lum. Shoir Furqat esa o'zining Istanbuldan turib yozgan mashhur „Sabog'a xitob“ she'riy maktubida Abdulazizxon nomini o'zining yaqin do'stlari qatorida tilga oladi. Adabiyotshunos olim Sh. Yusupov bu kishining to'la ismi sharifi Abdulazizxon Boboxon o'g'li ekanini aytadi va „o'zi uchrashgan, hamshubhat bo'lgan ajoyib zotlar“ haqida bir emas, to'rtta kitob tasnif etgani haqida ma'lumot beradi.

O'zidan 10-11 yosh katta bo'lgan bir zamondoshi „saodat ma'ab“, „janobi oliy“, „sayyidim“ deb atashi shoirning Abdulazizxon shaxsiga hurmat-u ildosini anglatadi:

Abdulazizxon! saodat ma'abgo,
Ma'zuri o'jizona yetur bandin, ey sabo.
Boshingni ostoniga qo'y avvalo borub,
Yuz-u ko'zing surub daru devor-u qasrig'o...
Yorab, Kamiy qulingni duosin ijobat et,
Ul sayyidim haqina ba e'zoli Mustafo.

Noma tarzida yozilgan ushbu muvashshahdan ko'rinadiki, undagi barcha ta'rif-u tavsiflar Abdulazizxonga tegishli. Muvashshah esa, yuqorida aytganimizdek, shu shaxs nomiga yozilgan. Demak, ma'lum bo'ladiki, ba'zan muvashshahdagi vaf o'sha muvashshah kimning nomiga yozilgan bo'lsa, shu nom egasiga tegishli bo'lishi ham mumkin ekan“ [4,87-88].

„Odatda muvashshah faqat tink do'stning ismiga bog'langan. Shuning uchun ham ismiga muvashshah bog'langan kishilarni aniqlash va shu orqali shoirning yor-u do'stlari, muhliti va doirasi haqida konkret material qo'lga kiritish, shoirning ilmiy biografiyasini yaratish uchun muhimdir“ [6,93].

Shunday ekan, muvashshahlar tadqiqi shoirning adabiy davrasi, ijodiy hamkorligi, shuningdek, bu davr ijtimoiy va adabiy hayoti kabi ko'plab masalalarga oydinlik kiritishi jihatidan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pardayev Q. Muqimiy she'riyati: matn tarixi, tahriri va talqini. – Toshkent, „Muharrir“, 2019.
2. Pardayev Q. Biz bilmagan Muqimiy. Yangi aniqlangan va matni qayta tiklangan asarlar. – Toshkent, „Muharrir“, 2019.
3. Qayumov A. She'riyat jilolari. – Toshkent, „O'qituvchi“, 1997.
4. To'laboyev O. Karimbek Kamiy – milliy uyg'onish shoiri. – Toshkent, „Muharrir“, 2018.
5. Yusupov Sh. Tarix va adab bo'stoni. – Toshkent, „Ma'naviyat“, 2003.
6. Shayxzoda M. Asarlar. Olli tomlik. Beshinchi tom. – Toshkent, Adabiyot va san'at, 1973.

Mohigul MAVLONOVA,

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

„FARHOD VA SHIRIN“ DOSTONIDA SHOPUR OBRAZI TALQINI

Annotatsiya. Ushbu maqola Alisher Navoiy qalamiga mansub „Farhod va Shirin“ dostonidagi muhim ijobiy yordamchi qahramonlardan biri, do'stlik va odamiylikning go'zal timsoli

Annotation. This article is devoted to a comparative analysis of the image of Shopur, one of the most important positive characters in the epic „Farhod and Shirin“ by Alisher Navoi, who is a

Аннотация. Данная статья посвящена сравнительному анализу образа Шопура, одного из важных положительных второстепенных персонажей эпоса «Фархад и Ширин»